

O‘ZBEKLARNING TABOBAT AN‘ANALARI

Toshkent tibbiyot akademiyasi Ijtimoiy fanlar kafedrası

dotsent Sh.A. Iskandarov

Pediatriya, stomatologiya, xalq tabobati va tibbiy pedagogika fakulteti

(Pediatriya, yo‘nalishi) 104-”A”guruh talabasi M.A.Yuldosheboeva

Tabobat so‘zining ma‘nosi arab tilida salomatli asrash, davolash va dori-darmon bilan bog‘liq amaliyotni ifodalab, ”tibobat” shaklida qo‘llaniladi. So‘zning o‘zagi arabcha- “tabba” bo‘lib davolash degan ma‘noni bildiradi.

Xalq tabobati-an‘anaviy tibbiyot xalq tomonidan to‘plangan, kasallikka tashhis qo‘yish va davolashda qo‘llaniladigan, avloddan avlodga o‘tib kelayotgan emperik bilimlar yig‘indi hisoblanadi.

Tabobat sirlari ming yillar davomida sayqallangan va bizgacha yetib kelgan. Buni Zardushdiylik ta‘limotining muqaddas kitobi Avesto ham tasdiqlaydi.

Uning barcha qismida xususan “Vendidod”da tabiblar tayyorlash, tabobat amaliyoti, kasalliklar tasnifi, ularning paydo bo‘lish sabablari va omillari, noyob dorivor giyohlar haqida ma‘lumotlar keltirilgan.

Buyuk bobokalonimiz Abu Ali ibn Sino nafaqat qadim an‘analarni davom ettirdi, balki davolashning yangi usullarini yaratib, tabobat ilmiga asos soldi.

“Tib qoninlari” asl nomi arabchada “Kitob al-Qonun fit-tib” asari o‘z davri tabobatining mufassil ensiklopediyasi bo‘lib, unda inson sog‘lig‘i va kasalligiga oid bo‘lgan barcha masalalar mantiqiy tartibda to‘la bayon etilgan. Bu asar 500 yil davomida Yevropa universitetlarida asosiy tabobat qo‘llanmasi sifatida o‘qitilib kelingan.

Temuriylar davrida salomatlik masalasi va sogʻliqni saqlash xodimlarining faoliyati davlat darajasida alohida belgilanganini qayd etish joiz. Amir Temur oʻzining “Temur tuzuklar”da ham “Saltanatimni oʻn ikki toifadagi kishilar bilan mustahkamladim, sakkizinchi toifa -hakimlar, tabiblar, munajjimlar va muxandislarki, ular saltanat korxonasiga rivoj beruvchilardir. Ularni oʻz atrofimga toʻpladim. Hakimlar va tabiblar bilan ittifoqda bemorlarni davolatar erdim

Oʻzbeklarning tabobat tarixi haqida toʻxtalganda bir narsaga alohida toʻxtalib oʻtish lozim, Subhonqulixon davrida tib ilmi rivojlandi. Ularning tasgabbusi bilan Buxoroda “Dorushshifo” qurilib bemorlarni davolash yoʻlga qoʻyildi yana tabiblar tayyorlashga ixtisoslashgan madrasa ham qurdirgan. Subhonqulixonning oʻzi ham tib ilmiga qiziqqan hamda “Tabobatni jonlantirishi” nomli asar yozadi

Sharq tabobatida tashxis qoʻyish Umumiy koʻzdan kechirish, tanadan taralayotgan hidga eʼtibor qilish Tomir urushini tekshirish va tanani paypaslab koʻrish Yashash joyi va ayrim mahsulotlarga taʼsirchanlik

Tandir fors tilida zardoli yaʼni pista koʻmir choʻgʻi yordamida yuqori haroratda qizdiriladi. Bu usul buyrak, jigar, yuqori qon bosimi, kamqonlik, bepushtlik, oshqozon ichak tizimidagi muommolar bartaraf etiladi. Bitta qizigan tandir 42 ta kishining dardiga davo boʻladi.

Tibbiyot tilida Girudioterapiya deb ataladi. Har qanday kasallik turidan qatʼiy nazar avvalo zulk jigarga qoʻyiladi. Bemorlar uchun vazniga qarab zuluk qoʻyish belgilangan 10 kgga 1ta zuluk toʻgʻri keladi. Insult asoratlari, gaymolit, gipertoniya, girija, osteoxondrios va boshqa kasalliklarni davolash mumkin

Har bir soha vaqt oʻtishi bilan mustahkam ilmiy asos va zamonaviy ilmga ehtiyoj sezganidek, xalq tabobatini ham sogʻliqni saqlash tizimiga ham oʻzoro uygʻunlashtirish, malakali mutahassislar tayyorlash lozim edi.

Toshkent tibbiyot akademiyasida Xalq tabobati yo‘nalishi 2020-yil 10-apreldagi o‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-4668 sonli qaror asosida tashkil etilgan

Bundan tashqari “Tabobat akademiyasi”NTM,” Respublika xalq tabobati ilmiy-amaliy markazi” , “Ibn Sino merosi”nomidagi laboratoriya markazi ham tashkil etilgan.

Shunday bo‘lsada xalq tabobatini tizimni, izchil shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan qonunga bo‘lgan ehtiyoj saqlanib qolaverdi. Bunday keyingi o‘zgarishlar 2017 yilga to‘g‘ri keldi. Xalq tabobati Akademiyasi bilan bir qatorda vodiya I.Asqarov boshchiligida “O‘zbekiston tibbiy-ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar Akademiyasi” faoliyati yo‘lga qo‘yildi. Bu davrga kelib O‘zbekistonda xalq tabobati an‘analaridan foydalanish zamonaviy tibbiyot vakillari orasida ham keng tarqala boshladi. Jumladan, so‘ngi besh yilda tabiiy giyohlardan foydalanish maslahati, hijoma usuli, zuluk qo‘yish, mizoj ta‘limoti kabilar tibbiyot xizmatlari tarkibidan joy egalladi. Hatto bugungi kunda dorixonalarda tabiiy giyohlar, hayvon a‘zolaridan tayyorlangan dorilar kabi tabobat tavsiya etadigan manbalar sotiladigan mahsus burchaklar tashkil etilgan. Xalq tabobati an‘analarini tabiiy ravishda jamiyat hayotida saqlanib qolishi hamda mustaqillikni ilk davrlariga nisbatan olganda mistik tabobatning mutloq ustunligi kamayib, empirik tabobat usullarining joriy etilishi bu sohani davlat tomonidan Qonun bilan tartibga solish vazifasini qo‘ydi. Natijada Prezidentning 2018 yil 12 oktyabr kuni “O‘zbekiston Respublikasida xalq tabobati sohasini tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ Qarori qabul qilindi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki o‘zbeklarning tibbiy an‘analari, salomatlik madaniyatini shakllanishi qadim tarixga ega bo‘lib, ilk davrlarda geografik omil, iqlim sharoiti hamda hududning flora va faunasi katta rol o‘ynagan.

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 12-октябрдаги ПҚ-3968-сонли “Ўзбекистон Республикасида халқ табobati соҳасини тартибга солиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори / lex.uz. (13.10.2018 й.)

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abdusattorov, R., & Yakubov, S. (2021). A LOOK AT THE LIFE AND SCIENTIFIC (PEDAGOGICAL) ACTIVITY OF UZBEK GERMAN SCIENTIST, PROFESSOR SHUKHRATKHON IMYAMINOVA. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES, 2(10), 86-91.
2. Абульханова, К. А., & Воловикова, М. И. (2007). Психосоциальный и субъектный подходы к исследованию личности в условиях социальных изменений. Психологический журнал, 28(5), 5-14.
3. Abdusattarov, R. (2021). Issues on theoretic bases in intercultural communication as—the primary factor of educating for foreign languages. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 11(8), 237-242.
4. Волкова, Мария Николаевна. "Онтологические основания оптимизма и пессимизма философии небытия." (2016).
5. Абдусаттаров, Р. Х. (2017). Роль спортивного комментария в популяризации спорта. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ (pp. 76-78).
6. Ramziddin, A., & Jakhongir, T. (2021). Problems of Development Theoretical Bases in Intercultural Communication as the Main Factor of Teaching Foreign Languages. Annals of the Romanian Society for Cell Biology, 6969-6973.
7. Toshaliyev, I., Abdusattorov, R., & Makhmudova, S. (2000). Ommaviy ahborot vositalarining tili va uslubi. T.: " University.

8. Ильин, Евгений Павлович. Психология надежды: оптимизм и пессимизм. "Издательский дом"" Питер""", 2021.
9. Toshaliyev, I., & Abdusattorov, R. (2006). Ommaviy ahborotning tili va uslubi.
10. Тошалиев, И., & Абдусаттаров, Р. (2006). Оммавий ахборотнинг тили ва услуби. Ўқув қўлланма. Т.: "ZAR QALAM.
11. Косарева, К. И. "Анализ экологической культуры студентов колледжа УрГЭУ." ББК 65.04 К64 Ответственные за выпуск: доктор экономических наук, ректор Уральского государственного экономического университета (2017): 42.
12. Абдусаттаров, Р. Х. (2017). Роль спортивного комментария в популяризации спорта. In АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ ФИЗИЧЕСКОЙ КУЛЬТУРЫ И СПОРТА В СОВРЕМЕННЫХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ (pp. 76-78).
13. Андреева, Ю.В., 2012. Педагогические основы воспитания оптимистически ориентированной личности. Вестник ВЭГУ, (4), pp.5-8.
14. Абдусаттаров, Р., & Тошалиев, И. (2000). ОАВ тили ва услуби. Т.: Ўзбекистон.
15. Агиенко, Марина Ивановна, Александр Андреевич Наумов, Салташ Доган, and Елена Петровна Карпенко. "Педагогические ресурсы формирования оптимистического мировоззрения студентов в современном вузе." Педагогика и просвещение 1 (2022): 52-67.